

PRAGMALINGVISTIKANING YANGI YO‘NALISH SIFATIDA SHAKLLANISHI

Oydinova Parizod

Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikda yangi sohalardan biri sifatida taraqqiy etayotgan pragmalingvistikaning shakllanishi va o‘zbek olimlarining bu borada olib borayotgan ishlariga to‘xtalangan.

Kalit so‘zlari: Pragmatika, falsafiy pragmatizm, dirkurs nazariyasi, nutqiy akt nazariyasi

Kirish

Keyingi davrlarda tilning tabiatini anglash va tushunish tilshunoslikda yangi sohalarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Shunday sohalardan biri pragmalingvistikadir. Nutqiy muloqot jarayoniga baho berishda pragmatika bilan bir qatorda boshqa soha vakillari ham qiziqishayotganini ta’kidlash zarur.

Pragmatika (yunoncha pragma – ish- harakat) aslida falsafiy tushuncha bo‘lib, u qadimgi grek, yunon faylasuflari davrlarida ham qo‘llanilgan, keyinroq Aristotel bu atamani iste’molga kiritdi va shu tariqa antik davrda pragmatizm oqimi yuzaga keldi. Pragmatizm oqimining keng yoyilib, yanada taraqqiy qilishi XX asr o‘rtalariga to‘g‘ri keladi va tilshunoslikda ham o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.

Falsafiy pragmatizm oqimining lingvistikada o‘z aksini topishida amerikalik olim Ch.Pirsning xizmati kattadir. Ushbu falsafiy tizimning asosiy g‘oyasi semiotik belgining (jumladan lisoniy belgining ham) ma’no-mazmuni berilgan belgi vositasida bajarilaётgan harakatning samarasi, natijalari, muvaffaqiyati bilan bog‘liq holda o‘rganishga qaratiladi¹.

Pragmalingvistikaning o‘rganilishining jahon tilshunosligida yoyilishi o‘tgan asrning 60-80 yillariga borib taqaladi. Mazkur davrda tilshunos J. Ostin tomonidan yaratilgan “nutqiy akt” nazariyasi yuzaga keldi. Nutqiy muloqotning eng kichik amaliy ko‘rinishi nutqiy akt sanaladi. U, albatta, nutq muomalasi qoidalari va tartibiga bo‘ysungan maqsadli nutqiy harakatdir. Nutq aktlarining umumiy yig‘indisi nutqiy faoliyatni tashkil etadi. Nutqiy akt nazariyasining asosiy tadqiqot ob’ektiga so‘zlovchi, adresat va ularning o‘zaro munosabati, muloqot vaziyati bilan aloqador bir qator masalalar kiradi.

Pragmatik lingvistikada muhim o‘rin tutadigan va keng o‘rganiladigan tushunchalardan biri, bu diskurs tushunchasi hisoblanadi. Diskurs tushunchasi lingvistik atama sifatida o‘tgan asrning o‘rtalarida tilshunoslikka kirib keldi. Bu atama zamonaviy lingvistikada murakkab kommunikativ hodisa sifatida ishlatilmoqda. Diskurs atamasi qo‘llanilganda biror-bir informatsiya èki mazmun ifodasini etkazish nazarda tutiladi. Informatsiya atamasida esa umumiy ma’noda axborot etkazish

¹ Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. - 232 б.



ma'nosi tushuniladi². Amalda diskurs - bu matnning shakllanish usulidir. Olim Ch. Pirsning keltirishicha, "diskurs - bu til birliklarining ma'lum vaqtda va ma'lum joyda ma'lum maqsad bilan qo'llanishi, ularning izchil bog'lanishidir³.

Diskurs nazariyasi pragmatik tilshunoslikning asosini tashkil qilarkan, tilshunoslikdagi yangi sohaning taraqqiy etishi va rivojlanishi uchun ko'pchilik jahon va o'zbek tilshunoslarining xizmatlari katta bo'ldi. Ayniqsa, H.P.Grice, Z.Harris, G.N.Leech, J.Ostin, G.Lakoff, Ch.Piers, H.H.Clark, G.Lyons, A.Wierzbicka, Yh.Stepanov, T.Bulygina, N.Artyunova, V.Demyankov, T.V.Anisimova, V.E.Chernyavskaya kabilar xorij olimlarining hissasi e'tirofqa loyiqdir. O'zbekistonda pragmalingsvistika sohasining rivojlanishida tilshunos olim SH.S.Safarovning o'rni alohidadir. Bu soha keyinchalik tilshunoslikda yangi yo'nalish sifatida ko'pgina ilmiy ishlarni yuzaga kelishiga turtki bo'ldi va hozirda ko'pchilik yosh tadqiqotchilar ham bu borada ilmiy izlanishlar olib bormoqda. N.Mahmudov, A.Nurmonov, D.Ashurova, S.Rahimov kabi olimlar o'zlarining qator ilmiy maqolalari orqali pragmalingsvistikaning nutqiy ifodasiga mansub sathlarni o'zbek tilshunosligiga olib kirdilar.

Xorij, ayniqsa G'arb tilshunosligida amalga oshirilayotgan ishlarga e'tibor va ularning tadqiqotlariga fikr bildirib tahlillarni erkin amalga oshirish o'zbek olimlari uchun mustaqilligimizdan keyin rivojlana boshladi. Boshqa sohalar kabi tilshunoslikda ham yangiliklarni qabul qilish va tadqiqolarni amalga oshirish bosim ostida bo'lgan. Ayniqsa, til va tilshunoslikka oid tadqiqotlarda tilning inson ruhiyati, kognitsiyasiga oid omillar e'tibori chetda qolgan edi. Mustaqillik tufayli o'zbek tili tadqiqotchilari Amerika va G'arb tilshunosligidagi yangiliklardan bevosita xabardor bo'la boshladilar va o'z tadqiqotlari bilan bu boradagi fikrlarini erkin bayon qila oldilar. Va, jahon tilshunosligida tadqiqob'ektiga aylangan kognitiv tilshunoslik, psixolingsvistika, etnolingsvistika, pragmalingsvistika, lingvomadaniyat kabi yangi tilshunoslik yo'nalishlarining tadqiqotchilariga keng yo'l ochildi, bir-biridan qiziqarli hamda jiddiy tahlil ishlari dunyoga keldi, bir qator yangi nazariy maktablar paydo bo'ldi. Bu borada qilingan eng birinchi va albatta, O'zbekistonda pragmalingsvistikaning dadil qadam ila kirib kelishiga katta hissa qo'shgan olim, Samarqandda keyinchalik tilshunoslikning yangi sohalari bo'yicha o'z maktabini yaratgan olim Shahriyor Safarovdir. Uning 1991yilda himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasi mavzusi aynan pragmalingsvistikaga bag'ishlangan bo'lib, nafaqat o'zbekistonlik, balki xorij olimlari tomonidan ham e'tirof etildi. SH.Safarovning shu yili chop qilingan "Sistema rechevogo obsheniya" nomli monografiyasida nutqiy muloqotning pragmatik, ijtimoiy xususiyatlari haqidagi turli tillar tizimidagi ma'lumotlar o'rin egallagan bo'lib, lingvistikaning pragmatik va ijtimoiy jihatlarini ochib bergan ushbu risola nafaqat mamlakatimizdagi dastlabki ilmiy tadqiqot, balki O'rta Osiyo mamlakatlari orasida ham yaratilgan dastlabki ilmiy nashrlar qatoriga kiradi. Bu tadqiqot ishi o'zbekistonlik tilshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy maqolarning yaratilishiga zamin bo'ldi va mamlakatimizda pragmalingsvistika sohasining etakchi olimlari o'z so'zini ayta boshlashdi. Sh.Safarovning 2008 nashr qilingan "Pragmalingsvistika" nomli monografiyasi esa nutqiy akt, nutqiy muloqot, qiyosiy pragmatika, etnopragsmatikaga oid tushunchalarni tahlilga tortgan va bu yangi sohaga

² Пирс Ч.П. Начала прагматизма / Перевод с английского, предисловие В.В. Кирющенко, М.В. Колопотина — СПб.: Лаборатория метафизических исследований философского факультета СПбГУ; Алетейя, 2000. — 352 с

³ Пирс Ч.П. Начала прагматизма / Перевод с английского, предисловие В.В. Кирющенко, М.В. Колопотина — СПб.: Лаборатория метафизических исследований философского факультета СПбГУ; Алетейя, 2000. — 352 с



qiziquvchilarga qo‘llanma sifatida g‘oyatda ahamiyatga ega ish sifatida tilshunoslikning yangi sohasi tadqiqida burilish yasadi.

Pragmalingvistikaga oid ma‘lumotlarni o‘quv qo‘llanma sifatida yosh tadqiqotchilar va shu soha bilan qiziquvchi auditoriyaga etkazish uchun ham harakatlar boshlanib ketdi. Ayniqsa D. Ashurovaning 2014 yilda chop etilgan “Text Linguistics” o‘quv qo‘llanmasining ilmiy ahamiyatini ta’kidlashimiz lozim. Ushbu qo‘llanma ingliz filologiyasi magistrantlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u aynan matn pragmatikasi masalarini qamrab olgan. Unda matn pragmatikasiga oid ta’rif, tavsif, tushuntirishlardan tashqari amaliy mashg‘ulotlar uchun mashq va savollar bilan mustahkamlangan. SHu kabi ish Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti A.Ko‘chiboev tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, “Matn lingvistikasi” deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasidir.

Tilshunos olim S.Mo‘minovning pragmalingvistikaga oid bajargan ishlari g‘oyatda ahamiyatligini e’tirof qilishimiz joizdir. S.Mo‘minov o‘zbek tilining nutqiy faoliyatining lisoniy shakllanishida pragmatik xususiyatlarni tahlil qiluvchi bir necha risolalar⁴ muallifi hamdir.

Yuqoridagi tahlillar pragmalingvistika sohasining yo‘nalishlari o‘zbek tilshunoslari tomonidan izchil va chuqur o‘rganilayotganligini, tilshunosligimiz yangi nazariyalarni qabul qilish va ularning tahlilini amalga oshirishda yosh tadqiqotchilar muhitini shakllantirayotganligini, va, bu borada jahon tilshunosligi bilan hamnafas ekanligini isbotlab turibdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. С.Мўминов. Сўзлашув одоби. Фарғона. “Фарғона” нашриёти. 1997. С.Мўминов. Ўзбек мулоқот нутқининг жинс жиҳатидан хосланиши.//Ўзбек тили ва адабиёти.1999. 5-сон. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий- лисоний хусусиятлари.ДДА...Тошкент.2000.
2. Нурмонов А. Ўзбек тилишунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. - 232 б.
3. Пирс Ч.П. Начала прагматизма / Перевод с английского, предисловие В.В. Кирющенко, М.В. Колопотина — СПб.: Лаборатория метафизических исследований философского факультета СПбГУ; Алтейя, 2000. —352 с
4. Пирс Ч.П. Начала прагматизма / Перевод с английского, предисловие В.В. Кирющенко, М.В. Колопотина — СПб.: Лаборатория метафизических исследований философского факультета СПбГУ; Алтейя, 2000. —352 с

⁴ С.Мўминов. Сўзлашув одоби.Фарғона. “Фарғона” нашриёти. 1997. С.Мўминов. Ўзбек мулоқот нутқининг жинс жиҳатидан хосланиши.//Ўзбек тили ва адабиёти.1999. 5-сон. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий- лисоний хусусиятлари.ДДА...Тошкент.2000.

